



Baxtiyor TOLIPOV,

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, dotsent

Farg‘ona davlat universiteti professori I.Siddiqov taqrizi ostida

SOG‘LOM RAQOBAT MUHITIDA YOSHLAR INNOVATSION IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishining falsafiy asoslari, uning sotsial-iqtisodiy va demokratik mohiyati tahlil qilinadi. Bozor munosabatlari, liberalizm va iqtisodiy erkinlik g‘oyalari o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik, shuningdek, G‘arb faylasuflari – J. Lokk, M. Veber, G. Zimmel, E. Dyurkgeymning qarashlari asosida iqtisodiy tafakkurning evolyutsiyasi yoritiladi. Maqolada iqtisodiy demokratiya, shaxs erkinligi va innovatsion izlanishlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar, milliy iqtisodiy tafakkurning zamonaviy model va tendensiyalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion iqtisodiy tafakkur, bozor munosabatlari, liberalizm, iqtisodiy demokratiya, raqobat, shaxs erkinligi, M. Veber, G. Zimmel.

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ЗДОРОВОЙ КОНКУРЕНЦИИ

Аннотация

В статье рассматриваются философские основы формирования и развития инновационного экономического мышления, а также его социально-экономическая и демократическая сущность. Анализируется диалектическая взаимосвязь между рыночными отношениями, либерализмом и экономической свободой. На основе идей западных мыслителей – Дж. Локка, М. Вебера, Г. Зиммеля и Э. Дюркгейма — раскрывается эволюция экономического мышления. В работе исследуются взаимосвязи между экономической демократией, личной свободой и инновационными процессами, а также современные тенденции и модели национального экономического мышления.

Ключевые слова: Инновационное экономическое мышление, рыночные отношения, либерализм, экономическая демократия, конкуренция, свобода личности, М. Вебер, Г. Зиммель.

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF YOUTH INNOVATIVE ECONOMIC THINKING IN A HEALTHY COMPETITIVE ENVIRONMENT

Annotation

This article explores the philosophical foundations of the formation and development of innovative economic thinking, emphasizing its socio-economic and democratic nature. It analyzes the dialectical relationship between market relations, liberalism, and economic freedom. Based on the ideas of Western philosophers such as J. Locke, M. Weber, G. Simmel, and E. Durkheim, the paper reveals the evolution of economic thought. It also discusses the interconnection between economic democracy, individual freedom, and innovation, while examining modern trends and national models of economic thinking.

Key words: Innovative economic thinking, market relations, liberalism, economic democracy, competition, individual freedom, M. Weber, G. Simmel.

Kirish. Innovatsion iqtisodiy tafakkur, ijtimoiy mohiyatiga ko‘ra, demokratik hodisa. U erkin fikrni, erkin mehnat va erkin izlanishlarni taqozo etadi. Bozor munosabatlarning demokratik xususiyati iqtisodiy va innovatsion tafakkur uchun eng maqbul makon, muhit. Demak, iqtisodiy va innovatsion tafakkurbozor munosabatlariga xos bo‘lgan demokratiya fenomeni bilan ham bog‘liqdir.

Bozor munosabatlari deganda biz erkin mehnatga, iqtisodiy faollikka, teng mehnat huquqiga qurilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tushunamiz. Mazkur ta’rifidan kelib chiqib, u bozor munosabatlarini shakllantirgan falsafiy - g‘oyaviy qarashlar (liberalizm, sotsiologizm, pozitiv evolyusionizm, empirizm va boshqalar)ni tahlil qiladi, ularning iqtisodiy tafakkurgata’sirini ochib beradi.

Bozor munosabatlari va demokratiya o‘zaro dialektik bog‘liq hodisalar hisoblanadi. Ushbu dialektik bog‘liqlik iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, siyosiy demokratiyani yuksaltirish, o‘zini - o‘zi boshqarishni yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy huquqlarni ro‘yobga chiqarish kabi yo‘nalishlar va vazifalar orqali yoritiladi.

Materiallar va metodlar. “Iqtisodiy tafakkur” tushunchasining genezisi uzoq o‘tmishga borib taqaladi, “Sharqda miloddan avvalgi IV ming yillik, G‘arbda II ming yillikda dastlabki iqtisodiy g‘oyalar bayon etilgan manbalar aniqlangan”[1]. Shu bilan birga, tadqiqotchi A.Razzakov XVI asrning boshlariga qadar, ya’ni natural xo‘jalik va iste’mol ustun bo‘lgan davrda birona nazariya yaratilmagan, deb ko‘rsatadi. Keyinchalik mahsulot ishlab chiqarish, tovar pul munosabatlari o‘sishi bilan, Yevropada Uyg‘onish davri, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik bilan bog‘liq tarzda merkantilizm, XVIII asr boshida proteksionizm, XVII asrning ikkinchi yarmida klassik ta’limot, XVIII asr o‘rtalarida fiziokratizm (tabiat hukmronligi), XIX asrning oxirlariga kelib marjinalizm, XX asrda neoklassika, institutsionalizm va Keynchilik g‘oyalari paydo bo‘ldi. Eng muhimi shundaki, “iqtisodiy g‘oyalarni qurilayotgan inshootga o‘xshatish mumkin. Poydevor mustahkam bo‘lsa, uning ustiga istalgan binoni barpo etsa bo‘ladi. Ana shu poydevor klassik ta’limotga tayanuvchi bozor iqtisodiyotidir”[2]. Bozor munosabatlari kishilik jamiyatining uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, xalqlar

va davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning mahsuli sifatida shakllangan hodisadir. Unda kishilarning iqtisodiy tafakkuri va faolligi, rang barang ehtiyojlarini qondirish istagi, iqtisodiy sohadagi huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga intilishi muhim rol o'ynagan. Shu tariqa siyosiy tafakkur ifodasi bo'lgan demokratiya bilan yonma-yon iqtisodiy tafakkurni o'z ichiga olgan «iqtisodiy demokratiya» yuzaga kelgan.

Muhokama va natijalar. Bozor munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy borliq, ishlab chiqarish va oldi-sotdikabi voqeliklar ifodasi. Ya'ni bozor munosabatlari ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar in'ikosi, iqtisodiy tafakkur, falsafiy-g'oyaviy qarashlar esa ushbu munosabatlardan kelib chiqqan yoki ularning sub'ektiv ifodasi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tafakkuriga, sub'ektiv faoliyatga ta'sirini rad qilmagan holda aytishimiz mumkinki, bozor munosabatlarining shakllanishida, ularning kishilar hayot tarzi, turmushi, amaliy faoliyatidan, tasavvuri va dunyoqarashidan joy olishida aqlu idrok mahsuli bo'lgan tafakkur, falsafiy-g'oyaviy qarashlar muhim rol o'ynagan.

Bozor munosabatlarining eng muhim falsafiy-g'oyaviy asosi liberalizmdir. Liberalizm tafakkurning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xususiyatga ega ko'rinishi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga, oldi-sotdi va erkin mehnat jarayonlariga, demokratik qadriyatlarining shakllanishiga ta'siri haqida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan[3].

Mutaxassislarining yozishicha, «liberalizm ta'limoti uyg'onish, islohotchilik (Reformatsiya) davri hamda Nyutonilmiy inqilobi mahsuli sifatida baholanadi. Darhaqiqat, o'sha zamonlarda ilgari surilgan ilg'or g'oya va ta'limotlar feodal jamiyatining inqirozi hamda burjuaziya ozodlik harakati jarayonida vujudga kelgan mafkuraning o'zagini tashkil etadi»[4].

XVII-asrda G'arbiy Yevropa davlatlari Angliya, Fransiya, Germaniya, Gollandiyada keng tarqalib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ta'limotga aylangan liberalizm insonning iqtisodiy, siyosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilib chiqdi. Masalan, J.Lokk «inson erki va xususiy mulkning daxlsizligini» himoya qildi[5]. XVIII asrga kelib, liberalizm «insonning haq-huquqlari va erkinliklari, sanoatda raqobat va xususiy mulkning daxlsizligi, jamiyatni kishilarning ongli faoliyati orqaligina o'zgartirish va takomillashtirish mumkinligi, fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy davlat tizimi vositasida muvofiqlashtirilishi haqidagi» g'oyalarga aylandi[6].

Falsafa fanlar doktori V.Alimasovning yozishicha, liberalizmning falsafiy-g'oyaviy mohiyati quyidagilarda aks etadi: «Birinchisi, har bir inson (shaxs) nafaqat mulkka ega bo'lishi, xuddi shuningdek, ushbu mulkini, o'z hayoti va erkini himoya qilish huquqiga ega. «Hayoti, erki va mulkini himoya qilish insonning tabiiy huquqidir» (J.Lokk). Ikkinchisi, inson (shaxs) xususiy mulkka ega bo'lishi nafaqat uning, xuddi shuningdek, butun jamiyatning ham boy – badavlat va farovon yashashiga olib keladi. «Xususiy mulkka ega inson (shaxs) o'zining ijodiy kuchlarini namoyon etadi va boshqalarning ham mehnat qilib, farovon yashashi uchun sharoit yaratadi» (B.Konstant). Uchinchisi, liberalizm ijtimoiy – tarixiy sharoit va taraqqiyot talablariga tez moslashadi. XVIII asrda u ma'rifatparvarlik g'oyalar bilan uyg'unlashib ketgan bo'lsa, keyingi davrlarda unda sotsial-demokratiya, parlamentarizm, bozor iqtisodiyoti, ochiq jamiyat g'oyalari ham o'z o'rini topadi»[7].

Ayniqsa liberalizm «kishining ishbilarmonligi va topqirligini, individual xususiyatlari va ijodiy kuchlarini namoyon qilishga qaratilgan ijtihodlarini qo'llab-quvvatlaydi. Iqtisodiy erkinlik inson (shaxs)ning siyosiy va fuqarolik huquqlari zaminidir. Shuning uchun mumtoz liberal tafakkur xususiy mulkni, bozor munosabatlarini himoya qilishni,

ularning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratishni o'zining bosh vazifasi deb biladi»[8]. Xususiy mulk, iqtisodiy erkinlik barqaror voqelik va tushunchalarga aylangan XIX asr liberalizmning «oltin davri»dir. Bu davrda liberal va iqtisodiy tafakkurda turli oqimlar, yo'nalishlar yuzaga keldi, natijada inson-jamiyat-davlat tizimidagi munosabatlar, hodisalardan tortib, to inson (shaxs)ning o'ziga taalluqli xususiy mulki, keyinchalik bozor iqtisodiyoti haqidagi ta'limotlarni shakllantirgan falsafiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlar paydo bo'ldi. B.Konstant, I.Bentam, J.S.Mill, G.Zimmel, G.Spenser, V.Gumboldt, Y.Shumpeter G.Laski, J.M.Keyns, T.Peyn, M.Fridman, R.Reych, F.A.Xayek, P.Krugman, L.Trou, I.Vallersteyn asarlarida ular bayon qilingan[9]. Mazkur asarlardagi barcha falsafiy-g'oyaviy yondashishlarni tahlil qilish va ularga baho berish imkoni yo'q. Biz tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, liberal tafakkurning bevosita bozor munosabatlari bilan bog'liq jihatlari va bu borada yirik ta'limotlar yaratgan olimlar merosiga murojaat etish bilan cheklanamiz.

G.Zimmelning deyarli olti yuz betdan iborat «Pul falsafasi» asarida kapitalistik tuzumda kishilararo munosabatlar, sotsiatsiyalar faoliyati, shaxs va davlat aloqalari, oila, nikoh, xo'jalik yuritish, ta'lim, tarbiya va madaniyatning pul bilan bog'liqligi keng tahlil qilingan. Faylasuf ijtimoiy-iqtisodiy omillarni chetlab (bu uning Marksdan farqli jihati), e'tiborini «sub'ektiv borliq», ya'ni iqtisodiy-madaniy hayotga, intellektga qaratgan bo'lsa-da, sotsializm bilan liberalizm kelisha olmasligini, aynan pulni qo'llab-quvvatlagan kapitalizm kishilar sotsiatsiyalarining rang-barangligiga zamin yaratganini qayd etadi. U demokratiya, huquq, liberal tafakkur, ilm-fan kuchi, madaniy-ijodiy faoliyat, deyarli kapitalizm davridagi sotsiativ mehnat turlarining barchasipul bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Aynan pulning universal vositaga aylanishi iqtisodiy tafakkurdagi, «madaniyatdagi uslubiy bir xillikni» keltirib chiqargan[10].

Pul inson faoliyati va tafakkurining yagona buyurtmachisiga aylangan. Eng muhimi shundaki, kishilar xo'jalik sotsiatsiyalari, ya'ni hozirgi iborada, kichik biznes, qo'shma korxonalar, xususiy firma va tadbirkorlik sub'ektlari pul yordamida ijtimoiy aloqalarga kirishadilar. Biroq ushbu «pozitiv sotsiologik omil» kishini jamiyatdan ma'naviy-ruhiy begonalashishiga olib kelishi mumkin. Kapitalizm yuzaga keltirgan, liberalizm qo'llab-quvvatlaydigan shaxs erkinligining kishilarda jamiyatdan begonalashishni avj oldirishini unutilib bo'lmaydi[11]. Ko'rinib turibdiki, G.Zimmel kapitalizm yuzaga keltirgan pul munosabatlarini, xo'jalik usullari va liberal tafakkurni, liberalizmni tanqid qiladi; u pulni nafaqat ijtimoiy hayotni yo'lga soluvchi «universal vosita», balki shaxsning jamiyatdan begonalashuvini keltirib chiqarishi ham mumkin, deb hisoblaydi. Shuningdek, E.Dyurkgeym mehnat taqsimotining, differensial-shahshning «noodatiy shakllari» mavjudligini ham qayd etadi. Ya'ni kapitalistik munosabatlar nafaqat yangi-yangi ishlab chiqarish usullari va vositalarini, iqtisodiy munosabatlarini yuzaga keltiradi, shu bilan birga, mehnat bilan kapital o'rtasida qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni, ishlabchiqarishdagi anarxiyani, ijtimoiy-ahloqiy sohada salbiy holatlarni ham keltirib chiqaradi[12]. Xullas, E.Dyurkgeymning fikricha, «bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ishlab chiqarish nazorat qilinmaydigan va boshqarilmaydigan bo'ladi»[13].

Xulosa. Yoshlarning innovatsion iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish masalasi zamonaviy falsafaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, u inson erkinligi, ijodkorligi va tashabbuskorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiy tafakkur o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-demokratik jarayonlarning mahsuli bo'lib, u erkin fikrlash, raqobatbardosh muhit va bozor

iqtisodiyotining rivojlanish tamoyillari bilan chambarchas bog'liqdir. Bozor munosabatlari iqtisodiy tafakkurning asosiy shakllanish maydoni sifatida inson mehnati, mulk daxlsizligi va iqtisodiy faollikni qadriyat sifatida ilgari suradi.

Iqtisodiy tafakkurning falsafiy ildizlari qadimgi davrlardagi iqtisodiy g'oyalardan tortib, klassik liberalizm, fiziokratizm, marjinalizm va institutsionalizm kabi nazariy yo'nalishlargacha uzluksiz taraqqiy etib kelgan. G'arb faylasuflari – J. Lakk, M. Veber, G. Zimmel va E. Dyurkgeym – inson tafakkurining iqtisodiy, axloqiy va ijtimoiy asoslarini izchil tahlil qilgan holda, iqtisodiy tafakkur va shaxs erkinligi o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratganlar. Ayniqsa, M. Veber tomonidan ilgari surilgan "protestant etikasi" g'oyasi iqtisodiy faoliyatni axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilgan.

Bozor iqtisodiyotining falsafiy talqinida iqtisodiy demokratiya tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Bu tushuncha insonning iqtisodiy faolligini, mulkka egalik huquqini, raqobatbardosh mehnat muhitida o'zini namoyon etish imkoniyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, kapitalistik tizimning

ayrim noxolis jihatlari – ijtimoiy tengsizlik, mehnat qadrsizlanishi va begonalashuv – falsafiy tahlil orqali insonparvarlik asosida qayta baholanishi zarur.

Bugungi global sharoitda innovatsion iqtisodiy tafakkur dinamik jarayon sifatida namoyon bo'lib, u turli mamlakatlarda o'ziga xos iqtisodiy modellar orqali ifodalanmoqda. Germaniya, Yaponiya, AQSh, Koreya va Xitoy tajribalari shuni ko'rsatadiki, raqobat madaniyati, bozor iqtisodiyoti va liberal qadriyatlar uyg'unlashuvi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston uchun esa bu yo'nalish milliy qadriyatlar, mehnat etikasining tarixiy an'analari va zamonaviy innovatsion g'oyalar bilan uyg'un tarzda rivojlanmoqda.

Xulosa. Yoshlarning innovatsion iqtisodiy tafakkurini shakllantirish jarayoni nafaqat iqtisodiy yoki texnologik, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan jarayondir. U shaxs erkinligini, ijodiy salohiyatni, iqtisodiy madaniyatni va sog'lom raqobat ruhini birlashtiradi. Bunday tafakkur turini rivojlantirish orqali jamiyatda yangilikka ochiqlik, iqtisodiy mas'uliyat va ijtimoiy adolat tamoyillari mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Razzaqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2011. 3 b.
2. Razzaqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2011. 3 b.
3. Вебер М. Избранные произведения.--Москва: Прогресс, 1990; Шумпетер Й. Капитализм, социализм, демократия.-- Москва: Наука, 1992; Краткая история экономического развития.--Москва: Русская деловая литература, 1999; Усмонов С.Н., Додобоев Ю.Т. Бозор иктисодиёти а сослари.--Тошкент: Фан, 1999).
4. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. Iqtisodiy ijtimoiy va ma'naviy jihatlari, - Toshkent:
5. Ma'naviyat, 2006.-29 b.
6. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. Iqtisodiy ijtimoiy va ma'naviy jihatlari, - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.-29 b.
7. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. Iqtisodiy ijtimoiy va ma'naviy jihatlari, - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.-29 b.
8. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash chanqog'i. - Toshkent: Falsafa va huquq nashr., 2007.-159b.
9. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash chanqog'i, -Toshkent: Falsafa va huquq nashr, 2007. -160 b.
10. Философия рынка. Екатеринбург, Альма М., 2003; Cuk Y., Maurs P. Introduction to Innovation and Technology Transfer Boston: Artech House, Inc., 1996; Шумпетер Й. Теория экономического развития.--Москва: Прогресс, 1982; Friedman M Capitalism and freedom. -- N. Y., 1962; Кругман П. Возвращение великой депрессии?-- Москва: Эксмо, 2009.
11. История социологии в Западной Европе и США- Москва: НОРМА-ИНФРА-М, 1999. –С.130-131
12. Беккер Г., Босков А. Современная социологическая теория в её преемственности и измерении. -Москва: Наука, 1962.- С. 12-14.
13. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии- Москва: Наука, 1991. –С. 71-86.
14. История социологии в Западной Европе и США- Москва: НОРМА-ИНФРА-М, 1999. –С.160.